


## SAMARQAND VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-avgust \*)

2019 yilning yanvar-avgust oylarida, viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 8544,4 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 8,4 % ga o`tdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1209,3 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 167,9 %), kichik tadbirkorlik sub'yektlarining tovar aylanmasi 7335,1 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 102,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1061,8 mlrd. so`m (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 91,8 %)ni tashkil etdi.


### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so`m)



2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o`sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o`sish sur`atlari Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlari, Jomboy, Narpay va Samarqand tumanlarida qayd etildi.

\*-dastlabki ma'lumot

**Chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari, (%)**  
(2019 yil yanvar-avgust)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 67,9 % ga o'sdi va 1209,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 14,2 % ulushiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 7335,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 102,4 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 85,8 % ga teng kelmoqda.

**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)**

2018 yil yanvar-avgust




2019 yil yanvar-avgust



■ Yirik korxonalar  
■ Kichik tadbirkorlik

**Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**  
(2019 yil yanvar-avgust)




Tahlil natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (99,8 %), Nurobod (99,4 %), Bulung'ur (99,4 %), Tayloq (98,8 %), Qo'shrabot (99,2 %) va Narpay (98,9 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 14,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahrida (37,1 %), Samarqand tumanida (35,3 %) va Pastdarg'om tumanida (5,7 %) kuzatildi.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**  
(2019 yil yanvar-avgust)


Hudud nomi	Yirik korxonalar (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>1209,3</b>	<b>167,9</b>	<b>7335,1</b>	<b>102,4</b>
Samarqand shahri	934,5	197,7	1581,6	88,6
Kattaqo`rg`on shahri	0,7	66,6	481,5	107,4
<i>tumanlar:</i>				
Bulung`ur	2,9	-	467,0	105,5
Jomboy	2,8	-	248,2	107,5
Ishtixon	9,5	-	350,9	104,4
Kattaqo`rg`on	4,2	-	348,5	105,2
Narpay	3,4	-	296,8	106,9
Nurobod	1,8	-	319,1	105,8
Oqdaryo	3,5	-	185,2	104,3
Payariq	4,7	-	318,9	106,0
Pastdarg`om	36,2	71,7	598,7	110,8
Paxtachi	3,0	-	289,5	105,3
Samarqand	172,6	90,4	316,1	120,9
Tayloq	3,0	-	242,4	105,7
Urgut	24,3	4,6 m.	1015,9	104,9
Qo`shrabot	2,2	-	274,8	106,7

**Hududlarda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining  
chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**  
(2019 yil yanvar-avgust)



Kichik tadbirkorlik sub'yektlari chakana savdo tovar aylanmasi hajmi yuqori bo'lgan Samarqand shahri 1581,6 mlrd. so'm, Urgut tumani 1015,9 mlrd. so'm, Pastdarg'om tumani 598,7 mlrd. so'm, Kattaqo'rg'on shahri 481,5 mlrd. so'm, Bulung'ur tumani 467,0 mlrd. so'm, Ishtixon tumani 350,9 mlrd. so'm, Kattaqo'rg'on tumani 348,5 mlrd. so'm va Samarqand tumani 316,1 mlrd. so'mlik hajm bilan chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**Chakana savdo tovar aylanmasida  
shahar va tumanlarning ulushi, (%)**  
(2019 yil yanvar-avgust)



2019 yil yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 2239,1 ming. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,1 % ga ko'paydi. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-avgust oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatning ayrim hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Kattaqo'rg'on shahri (5454,8 ming. so'm), Samarqand shahri (4656,7 ming. so'm) va Bulung'ur tumani (2561,1 ming. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Oqdaryo (1208,0 ming. so'm), Tayloq (1246,9 ming. so'm) va Kattaqo'rg'on (1315,7 ming. so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

**Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi**

(2019 yil yanvar-avgust)

Hududlar nomi	Ming. so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2239,1</b>	<b>106,1</b>
Samarqand shahri	4656,7	109,6
Kattaqo`rg`on shahri	5454,8	105,6
<i>tumanlar:</i>		
Bulung`ur	2 561,1	104,0
Jomboy	1490,0	105,9
Ishtixon	1448,1	104,8
Kattaqo`rg`on	1315,7	104,3
Narpay	1432,6	106,2
Nurobod	2174,0	104,2
Oqdaryo	1208,0	104,3
Payariq	1319,5	105,2
Pastdarg`om	1827,0	105,3
Paxtachi	2061,7	104,3
Samarqand	1975,1	105,8
Urgut	2092,1	104,1
Tayloq	1246,9	104,7
Qo`shrabot	2148,6	105,2

2019 yilning yanvar-avgust oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,4 % ni tashkil etib, 205,0 mlrd. so`mga yetdi, yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 107,2 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 90,5 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`yektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


## Samarqand viloyatining ulgurji savdo tovar aylanmasi

(2019 yil yanvar-avgust\*)

Joriy yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 3587,6 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 107,8 % ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'yektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra 2 516,7 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,4 % ni tashkil etdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 70,2 % ni tashkil qilmoqda. Yirik korxonalar esa, 1070,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 22,9 % ga o'sdi.

### Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik va kichik korxonalarining ulushi, (%)



\*-dastlabki ma'lumot

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.:71-230-85-23  
66-235-65-80